

## CHET ELDA BOLA HUQUQLARINING O'ZIGA XOSLIGI

**Abbosova Maftuna Subxonovna**

*Ilmiy rahbar: Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi,  
P.H.De-mail: maftuna08011993@gmail.com*

**Doniyorova Saida Sharof qizi**

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish  
ta'lim yo'nalishi talabasi; e-mail: saidadaniyarova21@gmail.com*

**Annotatsiya:** Inson huquqi bola huquqidan boshlanadi. Inson tug'ilishi bilan muayyan huquqlarga ega bo'ladi. Ammo hali ona suti og'zidan ketmagan bolaning o'z haq-huquqini himoya qila oladigan darajaga yetguniga qadar ancha vaqt kerak. Ana shu vaqt oralig'ida uning huquqlarini qonun kuchi bilan himoya qilish zarurati paydo bo'ladi. Shu bois xalqaro huquq tizimida jismoniy va aqqlij jihatdan kamolotga yetmagan, jumladan, alohida e'tibor va g'amxo'rlikka muhtoj bolalarning huquq, imtiyoz va kafolatlarini qamrab oluvchi «bola huquqlari» degan soha yuzaga kelgan.

**Kalit so'zlar:** konvensiya, inson huquqi, bola huquqi, bolalar mehnati, noqonuniy mehnat, ekspluatatsiya.

### СПЕЦИФИКА ПРАВ РЕБЕНКА ЗА РУБЕЖОМ.

**Аннотация:** Право человека начинается с права ребенка. Человек с рождения приобретает определенные права. Но пройдет много времени, прежде чем ребенок, у которого грудное молоко еще не вышло изо рта, сможет отстоять свои права. Именно в этот промежуток времени возникает необходимость защиты его прав силой закона. Таким образом, в системе международного права возникла область под названием «Права ребенка», охватывающая права, привилегии и гарантии детей, которые физически и умственно несовершены, включая детей, нуждающихся в особом внимании и заботе.

**Ключевые слова:** конвенция, право человека, право ребенка, детский труд, незаконный труд, эксплуатация.

### THE PECULIARITY OF THE RIGHTS OF THE CHILD ABROAD.

**Annotation:** Human rights begin with the right of the child. With the birth of a person acquires certain rights. But it takes a long time until the child, who has not yet left the mouth of breast milk, reaches a level where he can defend his right. It is during this time that the need arises to protect his rights by the force of law. Therefore, in the system of international law, the so-called "rights of the child" has arisen, which covers the rights, privileges and

*guarantees of children who have not matured physically and mentally, including those who need special attention and care.*

**Keywords:** convention, human rights, child rights, child labor, illegal labor, exploitation.

Bola huquqlari har bir bola hech qanday turdag'i cheklovlar siz ega bo'lishi lozim deb topilgan huquq va erkinliklar hisoblanadi. Bola huquqlarini himoya qilish, kafolatlashni nazarda tutuvchi xalqaro huquqiy hujjatlar ro'yxatining boshida «Barcha insonlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar...»[1] degan ulug'vor e'tirof bilan boshlanuvchi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi turadi. 1959-yilda Bola huquqlari deklaratsiyasini qabul qilish orqali Birlashgan Millatlar Tashkiloti butun insoniyatni, ota-onalar, davlatlar hukumatlarini bolalarning huquq va erkinliklarini tan olishga, ularga rioya qilishga chaqirgan edi. Bola huquqlariga doir bиринчи va asosiy xalqaro-huquqiy hujjat – Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya BMT tomonidan 1989-yilning 20-noyabrida qabul qilingan. 54 moddadidan iborat ushbu konvensiya ayni paytda bola huquqlarining xalqaro miqyosda himoyalanishiga xizmat qilib kelmoqda va u bola huquqlariga doir milliy qonunchilikni rivojlantirishning mukammal andozasi sanaladi. Ushbu Konvensiyaga ko'ra 18 yoshga yetmagan shaxslar bola deb hisoblanadi. Konvensiya barcha bolalarning asosiy insoniy qadr-qimmatini va ularning farovonligi hamda rivojlanishini ta'minlashning dolzarbligini tan oladi. Konvensiyaga ko'ra, bolalar huquqlarini himoya qilishning asosiy prinsipi – bolalar manfaatlarining ustuvorligini tan olishdir.

Bolaning begonasi bo'lmaydi. «Insoniyat o'zida mavjud bo'lgan eng yaxshi narsalarning hammasini bolalarga berishga majbur»[2], – deyiladi Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasida. Bolalar va yoshlar kattalar bilan bir xil huquqlarga ega. Har bir bola oziq-ovqat, birlamchi tibbiy yordam va rasmiy ta'lim, o'yin va dam olish kabi asosiy ehtiyojlarga ega bo'lgan g'amxo'r, mehribon hamda yetarli turmush darajasi bilan ta'minlay oladigan oilada o'sish huquqiga ega. Bundan tashqari, har bir bola e'tiborsizlik, majburiy mehnat va zo'ravonlikdan himoyalanish huquqiga ega. Ko'plab mamlakatda aholining taxminan 20-25% ni bolalar tashkil qiladi. Turli mamlakatlarda bolalar turli xil xavf-xatarlarga duchor bo'lib kelmoqda va ularni bunday xavf-xatarlardan himoya qilish kerak. Izlanishlar shuni ko'rsatganki, hatto dunyo bo'yicha eng rivojlangan deb hisoblanuvchi Amerika dalalarida ham har kuni o'rtacha 33 bola jarohatlanadi va eng ko'p bola ish paytida aynan qishloq xo'jaligida nobud bo'ladi. Bolalarni ekspluatatsiya qilish jahon bo'ylab kuzatiladigan muammo hisoblanadi va hatto Amerika ham bundan istisno emas. 10 yoshga to'limgan bolalar ham AQSh dalalarida kun ko'rish uchun mehnat qiladi. Ularga kattalarga qaraganda ancha kam maosh to'lanadi. Lekin issiq va sovuqqa qaramay qattiq mehnat qilishadi. Ish joyida bolalar turli moddalardan zaharlanadi. Aksariyat hollarda bolalar hayoti xavf ostida ekanini bilmaydilar ham. Amerika fermer xo'jaliklarida ham boshqa davlatlarda

bo'lgani kabi bolalar mehnatga qobiliyatli bo'lishi bilanoq dalada mehnat qilishni boshlaydi. Buni qarangki hattoki rivojlanganlik darajasi yuqoriligini butun dunyo tan olgan Amerikada ham bolalar huquqlari mutloq to'liq ta'minlanmagan. "McDonald's" kompaniyasining Kentukki, Indiana, Merilend va Ogayo shtatlaridagi shirkatlari jarimaga tortildi. Ular 300 dan ortiq bolalarni noqonuniy ishga yollagani, restoranlar oshxonasida ishchi sifatida turli vazifalarni bajartirgani aniqlangan. "Nyu-York Times" gazetasining aniqlashicha, "Ford", "General Motors", "J. Crew", "Walmart", "Target" va "Whole Foods" kompaniyalarining ta'minot zanjirida ham bolalar mehnatidan foydalanilgan[3].

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya 32-moddasida:

Ishtirokchi-davlatlar bolaning iqtisodiy ekspluatatsiyadan hamda uning sog'lig'i uchun xavf-xatar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan yoxud sog'lig'i, jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga zarar keltiradigan har qanday ishlardan himoya qilinish huquqini e'tirof etadilar,

Ishtirokchi-davlatlar ushbu moddaning amalga oshirilishini ta'minlash uchun qonuniy, ma'muriy va ijtimoiy, shuningdek, ta'lim sohasidagi chora-tadbirlarni ko'radilar. Ana shu maqsadlarda, boshqa xalqaro hujjatlarning tegishli qoidalariga amal qilgan holda, ishtirokchi-davlatlar, jumladan:

ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh yoki eng kichik yoshlarni belgilab qo'yadilar;

kundalik vaqttagi ishning muddati va mehnat sharoitiga doir zarur talablarni aniqlaydilar;

ushbu moddaning samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun jazoning tegishli turlari yoki boshqa sanksiyalarni ko'zda tutadilar[4].

Yuqorida aytib o'tilganidek bolalar voyaga yetmaguniga qadar o'z huquqlarini talab qila olmaydilar yoki bu borada katta qiyinchiliklarga duch keladi. Ularni himoya qiluvchilar sust ishlar ekan hali voyaga yetmasdan turib ular mакtabda o'qish o'rниga yer chopib, bolalar maydonchasida o'ynash o'rниga ekin maydonlarida kattalar bilan birga mehnat qilishga majbur bo'laveradilar. Himoyasiz bolalar haqida gap ketganda, nima uchun ular o'zлari va oilalarini boqish uchun ishslashlari kerakligi, ularni xavfli ishlarga undayotgan qashshoqlikning asosiy sabablarini bartaraf etish haqida ham o'ylashimiz kerak. Dunyoda har o'ninchи bola "bolalar mehnatiga jalb qilingan", kam rivojlangan mamlakatlarda kamida har beshinchi bola mehnatga majbur[5]. Buni Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (YUNISEF) ma'lumotlari tasdiqlaydi. Har yili 12-iyun butun dunyoda "Butunjahon bolalar mehnatiga qarshi kurash kuni" sifatida nishonlanadi. Ayni paytda dunyoda 160 million bola (63 million qiz va 97 million o'g'il bola) "bolalar mehnati"ga jalb qilingan. Kam rivojlangan mamlakatlarda 5 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan har to'rt boladan kamida 1 nafari potentsial xavfli kasblarda ishslashga majbur. Buning sababi nima? Albatta hech kim o'z farzandini og'ir mehnat ostida o'sishini

xohlamaydi va hech bir bola tengdoshlari bilan o'yinlar o'ynash o'rniغا dalalarda yoki zavod, fabrikalarda arzimagan pul evaziga ishlashni orzu qilmaydi. Bularning barchasi kun ko'rish uchundir. Mehnatning aybi yo'q deydi keksalar. To'g'ri bu so'zda jon bor ammo yosh bolalarni og'ir mehnatga jalb qilinishi hech bir mantiqqa sig'maydigan holat deb qaraladi bugungi rivojlangan zamonda. Ilm-fan, texnika kundan kunga takomillashib bormoqda. Yosh murg'ak bolalarning bugun kun ko'rish uchun ishlab turgan fabrikalarida ertaga ish topilmasligi ham mumkin. Chunki rivojlangan zamonda inson mehnati o'zini oqlamayotganini kuzatishimiz mumkin. Barcha zavod va fabrikalarda ishchilarni qisqartirish amaliyoti ketmoqda. Bunga sabab texnik jihozlar insonlarga qaraganda ancha samarador va kam xarjligi tufayli ancha ustunlikni qo'lga kiritmoqda. Bu degani mittigina qonunan ishlashi mumkin bo'limgan, malaka va bilimga ega bo'limgan ishchi bolalarning olayotgan arzimagan ish haqi va ish o'rni ham uzoq vaqt o'tmay qo'ldan boy berilishi mumkin. Ilmli kadrlarga esa doim ehtiyoj bor.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak har qanday vaziyatda va har qanday holatda ham yosh avlodning ilm olishiga asosiy e'tiborni qaratgan ma'quldir. Zero ilmga tikilgan sarmoya doimo o'zini oqlagan. "Dunyoda ilmdan o'zga najot yo'q va bo'limgay" [6]. Bundan 12 asr oldin muhaddislar sultonni, dunyo imomi – Imom Buxoriy bobomiz aytgan ushbu ibora tom ma'noda zamonaviy dunyoning shioriga aylandi. Zamonlar o'tishi bila bu iboraning dolzarbligi ortsa ortdiki aslo kamaygani yo'q. Oltinga teng bu ibora aynan bugun uchun balki barcha davrlar uchun aytilgandek go'yo. Aslida yuqorida ko'rib chiqilgan muammolar va turli qonunga zid holatlarning kelib chiqish sababi ham ilmsizlikdandir. Ilmli inson o'z huquq va majburiyatlarini o'z vaqtida va to'g'ri tushunib yetadi va unga amal qiladi. Ilmli inson birovning qo'lida shunchaki kun ko'rish uchun mehnat qilish bilan cheklanmaydi balki, o'z ustida ishlab avval o'z dalasiga ega bo'ladi keyin esa atrofdagilarni ish bilan bandligini ta'minlaydi. Ilmli inson hech qachon hech qayerda xor bo'lmaydi. Bunday insonlar doim o'z huquqlarini talab qila oladi balki boshqalarning huquqlarini ham himoya qiladi. Bilim malaka va ko'nikmaga ega kadrlarning ko'p bo'lishi barcha jamiyatlar uchun foydali. Bunday kadrlari ko'p bo'lgan murg'ak go'daklar hech qachon ochlikdan qiyalmaydi, hech qachon ekin dalalari yoki turli zavodlarda o'z hayoti va oltinga teng yoshligini qurban qilish evaziga qorin to'qlamaydilar. Ularning huquqlar hech qachon toptalmaydi. Xulosamiz so'ngida ushbiu maqolani o'qib turuvchi barchani ilm olishga chaqirib qolamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- |                                                                                                                                 |            |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| 1. Bola huquqlari to'g'risida                                                                                                   | Konvensiya |
| <a href="https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka">https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka</a> |            |
| 2. Bola huquqlari to'g'risida                                                                                                   | Konvensiya |
| <a href="https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka">https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka</a> |            |

3. "Nyu-York Times" [https://uz.wikipedia.org/wiki/Nyu-York\\_jamoat\\_kutubxonasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Nyu-York_jamoat_kutubxonasi)
4. Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya 32-moddasi <https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka>
5. Xalqaro mehnat tashkiloti va YUNISEF tomonidan tasdiqlangan ma'lumot <http://m.xabar.uz/uz/tag/xalqaro-mehnat-tashkiloti>
6. Imom Buxoriy hikmatlaridan <https://hikmatlar.uz/quote/2400>